

5. Бурменко Т.Д. Сфера услуг: экономика. Учебное пособие. / Т.Д.Бурменко, Н.Н.Даниленко, Т.А.Туренко; под ред. Т.Д.Бурменко. – М.: КНОРУС, 2007. – 328 с. С. 64-65.
6. Разомасова Е.А. Сфера услуг: теория, состояние и развитие. Монография. // НОУ ВПО Центросоюза РФ «Сибирский университет потребительской кооперации». – Новосибирск, 2011. – 136 с.
7. Мелешко Ю.В. Трансформация определения понятия «услуг» в контексте концепции постиндустриального общества. // Россия: Интернет-журнал "Экономическая наука сегодня". № 4. 2016 г.
8. Альфред Маршалл. Принципы экономической науки. – М.: Прогресс, 1993 г.
9. Котлер Ф. Основы маркетинга. – М.: Прогресс, 1993. С. 63.
10. Мухаммедов М.М. Хизмат қўрсатиш соҳасини ривожлантириши – устувор масала. // Servis jur. 1-сон, 2009. 47-56 б.
11. Ботирова Р., Икромов И. Ҳудудларда хизмат қўрсатиш соҳасини ривожлантиришинг долзарб йўналишлари. 11(119)-сон. 2017. <http://www.biznesdaily.uz>
12. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) – Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлигининг расмий сайти.



### FARG'ONA VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

doi: [https://doi.org/10.55439/ECED/vol25\\_iss2/a66](https://doi.org/10.55439/ECED/vol25_iss2/a66)

**Tuychiyeva Odina Nabievna**  
Farg'ona politexnika instituti  
“Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti v.b.

**Annotatsiya.** Maqolada mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rinni egallagan xizmat ko'rsatish sohasining o'rni, o'ziga xos xususiyatlari, sohadagi muammolarning o'rganilganlik holati, shuningdek, sohada erishilgan natijalar va uning rivojlanish tendensiyalari yoritilib, xizmat ko'rsatish sohasini takomillashtirish bo'yicha asosli tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** xizmat ko'rsatish sohasi, xizmat turlari, ta'lif xizmatlari, sog'liqni saqlash xizmatlari, maishiy xizmat ko'rsatish, aloqa xizmatlari.

### ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

**Туйчиева Одина Набиевна**  
И.о. доцент кафедры «Экономики»  
Ферганского политехнического института

**Аннотация.** В статье освещена роль сферы услуг, занимающей важное место в экономике страны, ее особенности, состояние изученности проблем отрасли, а также достигнутые в отрасли результаты и тенденции ее развития, выделены причины улучшения сферы обслуживания, даны соответствующие рекомендации.

**Ключевые слова:** сфера услуг, виды услуг, образовательные услуги, медицинские услуги, бытовые услуги, услуги связи.

### ISSUES OF DEVELOPMENT OF THE SERVICE SECTOR IN THE FERGHANA REGION

**Tuychiyeva Odina Nabievna**  
Associate professor of the Department "Economics"  
of the Ferghana Polytechnic Institute

**Abstract.** The article highlights the role of the service sector, which occupies an important place in the country's economy, its features, the state of knowledge of the problems of the sector, as well as the results achieved and its development trends, the reasons for improving the service sector are highlighted, and appropriate recommendations are given.

**Key words:** service sector, types of services, educational services, medical services, personal services, communication services.

**Kirish.** Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning tez sur'atlarda rivojlanayotgan tarmog'i hisoblanadi. Ushbu soha ham ishlab chiqarish kabi yangi ish o'rinalarini yaratish, budgetga tushumlarni ta'minlash, iqtisodiyotga investitsiyalar jalg qilish funksiyalarini bajaradi. Sohaning yalpi ichki mahsulotdagi salmog'iga qarab, davlat iqtisodiyotining ilg'orlik darajasini baholash mumkin. Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi iqtisodiy o'sish, aholi bandligini ta'minlash va turmush farovonligini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Shu sababdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan qabul qilingan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 34-maqсадида: "Hududlarning muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish" yo'nalishi bo'yicha "Hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo'nalishda jami 3,5 million yangi ish o'rinalarini yaratish, shahar va tumanlar markazlarida aholining kundalik ehtiyoji yuqori bo'lgan maishiy va kommunal xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha pulli sанtexnika, elektrik, uy jihozlarini ta'mirlash, keytering kabi xizmatlarni ko'rsatish punktlarini rivojlantirish" [1] vazifalari belgilab berilgan.

Ushbu farmon ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining "2022-2026-yillarda Farg'ona viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 121-sonli qarori bilan yalpi hududiy mahsulot hajmini 1,5 baravar, sanoat mahsulotlari hajmini 1,5 baravar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni 1,2 baravar, xizmatlar hajmini 3,1 baravar hamda qurilish ishlari hajmini 1,5 baravarga oshirish rejalashtirildi.

Xizmatlar hajmining 3.1 foizga oshirilishi maqсадига quyidagi tadbirlarni amalga oshirish orqali erishish ko'zda tutilgan:

- ✓ transport-logistika markazlarini tashkil etish;
- ✓ hududlarni yuqori tezlikdagi internet bilan qamrab olishni tashkil etish;
- ✓ turizm infratuzilmasini rivojlantirish;
- ✓ tadbirkorlarga bozor tadqiqotlarini amalga oshirish bo'yicha marketing markazlarini tashkil etish;
- ✓ qishloq joylarda maishiy jihozlarni ta'mirlash bo'yicha ko'chma xizmat ko'rsatish markazlarini tashkil etish.

Xizmat ko'rsatishning yuqori darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi iqtisodiy hududlarni rivojlantirishni, moddiy tovarlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilish samaradorligini oshirishni ta'minlaydi.

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi aholining yuqori hayot sifatini ta'minlash va iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtirishda hal qiluvchi omil bo'ldi. Demografik omillarning mehnat bozoriga ta'siri juda yuqori bo'lgan O'zbekiston uchun xizmat ko'rsatish sohasining ijtimoiy ahamiyati keskin oshib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda xizmatlar sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushu 42 %ni tashkil etgan. Vaholanki, Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, rivojlangan ilg'or mamlakatlarda ushbu sektorning yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 74 foizni, ish bilan band bo'lganlarning umumiyligi soni 70-75 foizni va korxonalarning umumiyligi soni 90-95 foizni tashkil etadi. Ushbu holat O'zbekistonda xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha bir qator ishlarni amalga oshirishni obyektiv zaruratga aylantiradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Xizmatlar sohasini, jumladan, xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy va metodologik muammolari xorij olimlari D.Aaker, G.Avanesova, I.Ansoff, K.Baksht, O.N.Balaeva, I.S.Beredin, R.Best, P.Gembl, K.Lavlok, F.Kotler va boshqalarning ilmiy ishlari o'rganilgan.

F.Kotler fikricha, xizmat har qanday choratadbir yoki foyda bo'lib, bunda bir tomon ikkinchi tomonga his qilib bo'lmaydigan narsani taklif etadi va bu holat taklif qilinayotgan narsaga egalik qilishga olib kelmaydi. His qilib bo'lmaslik, o'z manbayidan ajratib bo'lmaslik, sifatining beqarorligi va saqlanmasligi xizmatlarning asosiy xossalari sifatida namoyon bo'ladi [2].

Kristofer Lavlok xizmatlar bo'yicha quyidagi ta'rifni taklif etadi: "Xizmatlar iqtisodiy faoliyat turi bo'lib, qimmatliklar yaratadi va aniq vaqt va aniq joyda xizmatlarni olishga qaratilgan his qilib bo'ladi va his qilib bo'lmaydigan harakatlar natijasida iste'molchilarga ma'lum bir ustunliklarni ta'minlaydi" [3].

MDH davlatlarining olimlari tomonidan xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni, ahamiyati, rivojlanish istiqbollari tadqiq etilgan. Xususan, G.Avanesova: "Xizmatlar sohasi bozor munosabatlari doirasida ijtimoiy ne'matlar yaratish, xizmat ko'rsatish, servis mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'nalishidagi iqtisodiy faoliyning ko'rinishidir. Servis faoliyati aholining keng miqyosdaghi ijtimoiy va individual ehtiyojlarini qondirish bilan bir qatorda yangi tipdagi ijtimoiy

va iqtisodiy munosabatlarni shakllantiradi", – deb ta'rif bergen.

N.A.Barinov xizmatga mahsulotning (buyumning) foydali harakati yoki insonning o'ziga xos, oqilona ehtiyojlarini qondirish uchun faoliyat shaklida namoyon bo'ladigan, foydalanish qiymatlarini yaratadigan mehnat natijalari bo'yicha paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlarni sifatida yondashgan. Shuning uchun xizmat ko'rsatish jarayoni iste'molchilarga xizmatlarni yetkazib berish jarayoni, ya'ni har qanday shakldagi jismoniy va yuridik shaxslarning ehtiyojlarini qondirish jarayoni sifatida qaralishi kerak.

O'zbekistonlik olimlardan M.Q.Pardayev va H.N.Musayev o'z ilmiy-tadqiqot ishlarida xizmatlar sohasini bozor iqtisodiyotining tarkibiy qismi, iqtisodiy munosabatlarni umumiyligi tizimining qatnashuvchisi sifatida ta'riflaganlar. Shuningdek, M.A.Ikramov xizmatlar marketingi muammolarini tadqiq qilgan. Amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarida mamlakat bo'yicha umumiyligi ravishda xizmatlar sohasini rivojlantirishdagi imkoniyatlar ochib berilgan, aniq viloyatlar kesimida ularning xususiyatlari, demografik, etnik va ijtimoiy omillarni e'tiborga olgan holda xizmatlarni rivojlantirish masalalariga kam ahamiyat berilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil, tizimli tahlil, statistik guruhash, sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini ko'paytirishni o'z ichiga olgan umumlash-tiruvchi kategoriadir. Boshqacha qilib aytganda, bu mamlakat iqtisodiyotining tijorat, professional

va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslash-gan tarmoqlaridan biridir. Xizmat ko'rsatish soha-si, uning ko'lami, tuzilishi va rivojlanish darajasi mamlakatning iqtisodiy holatini baholashda alohi-da o'rinni egallaydi. Jahon miqyosidagi global raqobatbardoshlik reytingi indeksiga bag'ishlangan iqtisodiy forum hisobotida ham xizmat ko'rsatish sohasi, uning ko'lami, tuzilishi va rivojlanish darajasi hozirda mamlakatning iqtisodiy mavqeyini baholashda alohida o'rin tutishi ta'kidlab o'tilgan.

Xususan, O'zbekistonda 2023-yil davomida 470286.5 mlrd. so'mlik xizmat ko'rsatilgan. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi 12915.6 ming so'mni tashkil etgan. Xizmatlar sohasini viloyatlar kesimida barobar rivojlan-rishga bo'lgan e'tibor natijasida har bir viloyat bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini oshish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Ko'rsatilgan xizmatlar hajmida Toshkent shahri (193227.7 mlrd. so'm, 41.1 %), Toshkent viloyati (31934.8 mlrd. so'm, 6.8 %), Samarqand shahri ( 28992.0 mlrd. so'm, 6.2 %) va Farg'ona viloyati (26592.8 mlrd. so'm, 5.7 %) boshqa viloyatlarga nisbatan yuqori ulushga ega bo'lgan. Sirdaryo (1.6 %), Jizzax (2.2 %), Navoiy (2.4 %) viloyatlarida xizmat ko'rsatish darajasi past bo'lganligini ko'rish mumkin. O'rganilgan davrda barcha viloyatlarda xizmat ko'rsatish hajmining o'sishi kuzatiladi. Xizmatlar sohasining o'sish tendensiyasiga davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar, aholining bandligini ta'minlash maqsadida ushbu sohada tadbirkorni rivojlan-rishga qaratilgan davlatning iqtisodiy siyosati ta'sir ko'rsatgan.

### 1-jadval

2023-yilda hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

Nº	Hududlar nomi	Hajmi, mlrd. so'm.	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
1.	<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>470 286,5</b>	<b>100,0</b>	<b>113,7</b>
2.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	12876.612	2.7	110.8
3.	Viloyatlar:			
4.	Andijon	21793.4	4.6	111.3
5.	Buxoro	19344.0	4.1	111.0
6.	Jizzax	10378.3	2.2	112.8
7.	Qashqadaryo	19518.4	4.2	111.0
8.	Navoiy	11520.7	2.4	112.5
9.	Namangan	17822.9	3.8	111.1
10.	Samarqand	28992.0	6.2	113.7
11.	Surxondaryo	15493.7	3.3	110.5
12.	Sirdaryo	6099.0	1.3	110.9
13.	Toshkent	31934.8	6.8	110.8
14.	Farg'ona	26592.8	5.7	110.5
15.	Xorazm	13266.1	2.8	114.6
16.	Toshkent sh.	193227.7	41.1	118.7

Farg'ona viloyatida ham xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Xususan, o'rganilgan yil davomida Farg'ona viloyati bo'yicha jami 26592.8 mlrd. so'mlik xizmat ko'rsatilib, o'sish sur'ati 10.5 foizni tashkil etdi. Shuningdek, aholi jon boshiga

xizmatlar hajmi 66116.9 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'sish darajasi 8.2 foizni tashkil etgan[10].

Farg'ona viloyatida xizmatlarning turlari bo'yicha hajmi o'rganilganda, uning tarkibida savdo xizmatlarining salmoqli hajmga ega ekanligini ko'rish mumkin.

**2-jadval**

**Farg'ona viloyatida 2023-yilda ko'rsatilgan xizmatlar turlari hajmi va o'sish darajasi**

№	Xizmat turlari	2022-yil		2023-yil		O'sish darajasi
		Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi %	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi %	
1.	Moliyaviy xizmatlar	4876.9	20.26	5271.9	19.82	108.1
2.	Savdo xizmatlari	7247.1	30.11	8080.5	30.39	111.5
3.	Transport xizmatlari	4624.5	19.21	5091.6	19.14	110.1
4.	Aloqa va axborot xizmatlari	1178.9	4.89	1430.0	5.37	121.3
5.	Ta'lim xizmatlari	1076.1	4.47	1274.1	4.79	118.4
6.	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	669.6	2.78	745.3	2.80	111.3
7.	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	563.9	2.34	593.4	2.23	105.3
8.	Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmati	669.7	2.78	693.8	2.60	103.6
9.	Sog'lijni saqlash	531.9	2.21	555.8	2.1	104.5
10.	Boshqa xizmatlar	2592.0	10.77	2856.4	10.74	110.2
	<b>Jami:</b>	<b>24065.9</b>	<b>100</b>	<b>26592.8</b>	<b>100</b>	<b>110.5</b>

Farg'ona viloyatida ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibida savdo xizmatlari (30.39 %), moliyaviy xizmatlar (19.82 %) va transport (19.14 %) xizmatlari ustunlik qilmoqda. Ushbu xizmatlar hajmining o'tgan yilga nisbatan o'sishi mos ravishda 11.5 %, 8.1 %, 10.1 %ni tashkil etgan. Buning asosiy sababi esa ushbu sohalarda tadbirkorlik subyektlarining ko'pligi va ularning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi (chakana savdo bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlarining berilishi, boj to'lovlaridan ozod qilish) natijasida samarali faoliyat ko'rsatayotganligidadir. Eng past ko'rsatkichlar esa ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarga (2.23 %) va sog'lijni saqlash xizmatlariga (2.1 %) to'g'ri kelgan. Bu esa ushbu sohalarda jiddiy kamchiliklar (malakali mutaxassislarining, tibbiy jihozlarning yetishmasligi) mavjudligini ko'rsatadi. Xizmatlar hajmining o'tgan yilga nisbatan o'sish darajasi o'rganilganda, aloqa va aloqa xizmatlarining o'sish sur'ati yuqoriligi, ya'ni 121.3 foizni tashkil etganligini ko'rish mumkin. Ushbu holatni iqtisodiyotning raqamlashtirish darajasi oshib borishi bilan kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar, shuningdek, telekommunikatsiya xizmatlariga talabning oshib borayotganligi bilan asoslash mumkin.

Zamonaviy sharoitlarda jamiyat rivojlani-shining o'ziga xos xususiyati xizmat ko'rsatish

sohasini iqtisodiyotning yetakchi sektoriga aylan-tirishdir. Bugungi kunda dunyoda raqobat va iste'molchilar talablarining jadal rivojlanishi mu-nosabati bilan turli xil xizmatlar paydo bo'lmoqda. Ilmiy-texnik va texnologik taraqqiyotni jadal modernizatsiya qilish tufayli servis faoliyatining yangi yo'nalishlari yaratildi. Xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar axborot texnologiyalari va aloqa vositalarining integratsiyasi tufayli biznesni yuritishning sifat jihatidan boshqa darajasiga o'tishga muvaffaq bo'lishdi.

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishini, aholining turli xil xizmatlar bilan ta'minlanish darajasini aniqlash maqsadida o'tkazilgan tahlil natijalari respublikada uni rivojlanirish uchun foydalanilmagan imkoniyatlar mavjudligini ko'r-satdi.

Birinchidan, tovar ishlab chiqarishda yalpi qo'shimcha qiymat hozirda 42 %, xizmat ko'rsatish sohasida esa 63 %ni tashkil qiladi. Bundan kelib chiqadiki, xizmat ko'rsatish sohasida tovarlar va xizmatlarning yalpi ishlab chiqarishining bir xil hajmi bilan qo'shilgan qiymatdan 1,5 baravar ko'p yaratiladi. Shu sababli xizmat ko'rsatish sohasini jadal sur'atlar bilan rivojlanirish yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashga yordam beradi.

Ikkinchidan, aholining pul daromadlarini ko'paytirish nuqtayi nazaridan ham xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanirish zarur. Buning sababi shundaki, mamlakatda aholi jon boshiga xizmatlar

hajmi past. Agar rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 30-45 ming AQSh dollarini tashkil etsa, respublikamizda 700 dollardan sal ko'proq. Ta'lif va sog'liqni saqlash sohasida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ayniqsa, past.

Uchinchidan, O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotdagi xizmatlar ulushi 41,5 foizga teng bo'lib, rivojlangan mamlakatlar ko'rsatkichlaridan 75-80 foiz past. Zamonaviy ilmiy qarashlarga ko'ra, mamlakatning yalpi ichki mahsulotidagi xizmatlarning ulushi ustunlik qilishi kerak. Ushbu ko'rsatkichni rivojlangan mamlakatlarning o'rta-chaga ko'rsatkichiga yetkazish uchun uning o'sish sur'atlarini keskin oshirish kerak.

To'rtinchidan, qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasining sust rivojlanishi. Respublika aholisining qariyb yarmi (49,3 foizi) qishloq joylarda istiqomat qilishini hisobga olsak, bu ko'rsatkich juda past ekanligi aniq. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida shahar va qishloq aholisining yashash sharoitlari o'rta-sidagi mavjud tafovutlarni bartaraf etish vazifasi qo'yilgan va bu vazifani bajarish shahar bilan taqqoslaganda, qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirishni taqozo etadi.

Beshinchidan, mamlakatda aholining istemol xarajatlari tarkibidagi xizmatlar ulushi juda past.

Oltinchidan, ushbu sektor tarmoqlarida o'rta-chaga oylik ish haqi xizmat ko'rsatish sohasi xodimlarining o'rta-chaga ish haqi 4500-4600 dollar ni tashkil etadigan rivojlangan mamlakatlarga qaraganda ancha past, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 220 dollarni tashkil etadi.

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning aholi daromadlari va uning hayot sifatini oshirishga salmoqli ta'siri sababli ushbu sohani rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini aniq-lash, ularning jadal rivojlanishi asosida sohaning tarmoq tarkibini isloh qilish va sohaning bir qismi bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini takomillashtirish zaruratini oshiradi.

Xizmat ko'rsatish sohasining tarmoq tarkibini takomillashtirish borasida uning eng istiqbolli segmentlarini ustuvor rivojlantirish zarurligini ta'kidlash kerak, shu jumladan, transport, turizm, ta'lif xizmatlari, sog'liqni saqlash xizmatlari, shuningdek, kompyuter va axborot kommunikatsiyalari (AKT) sohasidagi xizmatlarni ko'rsatish mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan aholining o'rta-chaga ish haqi ham oshib, 2026-yilda 3506 ming so'mni

tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkich 2010-yilga nisbatan 3096 ming so'mga ko'p yoki 8,6 baravar yuqori.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilish mumkin-ki, hozirgi bosqichda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish aholi farovonligini oshirishning muhim yo'nalishi sifatida qaralmoqda. Shu sababdan xizmat ko'rsatish sohasini takomillashtirish obyektiv zarurat sifatida belgilanadi. Bunda xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha ilgor mamlakatlar tajribasini o'rganish va foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xususan, AQShda yaratilgan texnologik innovatsiyalar turizm, bank-moliya, tibbiyat, ta'lif va boshqa xizmatlarga jalb etilishi natijasida sohaning yetakchi tarmoqqa aylanishi ta'minlandi. Buyuk Britaniyaning barcha hududlarida xizmatlar turlariga bo'lgan talabni o'rganish hamda uni bajarish, nazorat qilish jarayonlari raqamlashtirilgan bo'lib, bu uning yalpi ichki mahsuloti ulushida xizmatlar sohasini 70 %ga yetkazish imkoniyatini yaratgan.

Yuqorida fikrlarni e'tiborga olgan holda, xizmatlar sohasini rivojlantirish jarayonida quydagilarga alohida e'tibor berish muhimdir:

- ✓ hududlarda (tumanlarda) xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish darajasini tenglashtirish;
- ✓ turizm, ta'lif xizmatlari, kompyuter va axborot kommunikatsiyalari, audit, marketing, moliya, konsalting va axborot xizmatlari sohasidagi xizmatlarni jadal rivojlantirish;
- ✓ xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushini oshirish;
- ✓ xizmat ko'rsatishni tashkil etishning ilg'or shakllarini joriy etish. Bunda xorij tajribasini o'rganish va undan keng foydalanishni ta'minlash;
- ✓ aholining talablari va istaklaridan kelib chiqqan holda pulli xizmatlar turlarini kengaytirish;
- ✓ xizmat ko'rsatish sohasini raqamlashtirishni kengaytirish. Bunda raqamli infratuzilmani shakllantirish, dasturiy modellashtirish tizimlari dan keng foydalanish, multiservis tarmoqlarini rivojlantirishga e'tiborni qaratish;
- ✓ xizmat ko'rsatish sohasi uchun mutaxassislar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish.

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi xizmat ko'rsatish hajmini ko'paytirish asosida aholining xizmatlarga bo'lgan talabini qondirishga, turmush farovonligini oshirishga imkoniyat yaratadi.

### ***Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

1. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" O'zR Prezidentining PF-60-sonli farmoni. 28.01.2022-y.
2. "2022-2026-yillarda Farg'ona viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zR VMning 221-sonli qarori. 28.04.2022-y.
3. Мурунов А.С., Хончев М.А., Афонин С.Э. Зарубежный опыт организации эффективного функционирования предприятий сферы услуг. / Проблемы экономики и юридической практике, 2013 год, стр. 207-209.
4. Котлер Ф. Основы маркетинга. – М.: Прогресс, 1990. С. 638.
5. Кристофер Лавлок. Маркетинг услуг: Персонал, технологии, стратегия, 4-е изд.: пер. с англ. – М.: Издательский дом «Вильямс», 2005. С. 34.
6. Туйчиева О. К проблеме развития малого и частного предпринимательства в Узбекистане. // Экономика и социум. 2021. № 9 (88). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-probleme-razvitiya-malogo-i-chastnogo-predprinimatelstva-v-uzbekistane>
7. Tuychieva O.N. (2022). Modern trends in the development of fintech and big data in Uzbekistan I. Экономика и социум, (11-1 (102)), 228-237.TAN I.
8. Gafurova F.S., Davlyatova G.M. (2019). Identification and mobilization of reserves for the rational use of resources as a factor in increasing the efficiency of production. Problems of modern science and education, (12-1 (145)), 52-5.
9. Давлятова Г.М. О некоторых направлениях развития промышленности Узбекистана на перспективу. // Экономика и бизнес: теория и практика. 2021. № 10-1. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-nekotoryh-napravleniyah-razvitiya-promyshlennosti-uzbekistana-na-perspektivu>
10. O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari, 2023-yil yanvar-dekabr. Stat.uz ma'lumotnomasi.